

YURTIMIZDA TA'LIM TIZIMIGA BERILAYOTGAN E'TIBOR.

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi 14-umumiy o'rta ta'lif maktabining ona tili va adabiyot fani o'qiruvchisi
Sultonova Shahnoza*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda yangi o'zbekistonda ta'lif berilayotgan e'tibor hamda talabalarning ilmiy faoliyatini tashkillashtirish uslublari tashkil etishda ilmiy ishlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ilmiy tadqiqot, ijodiy faoliyat, pedagogik texnologiya, Ilmiy ishlar, ilmiy yondashuv, metodik usul.*

Zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash bugungi oliy ta'lif tizimi oldida turgan dolzarb vazifadir. Bugun oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kreditmodul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'lifning ilg'or standartlarini joriy etish zarur. Shuningdek, oliy ta'lif mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamon ahamiyatini yo'qotmagan. Ta'lif va fan sohasiga investitsiyalarni yo'naltirish, ta'lif sohasida keng qamrovli va chuqur islohotlar o'tkazish, mamlakat intellektual salohiyatini rivojlantirish iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishning muhim garovi hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining ta'lif sohasiga alohida e'tibor bilan yondashgani, ta'lif tizimida tubdan islohotlarni amalga oshirish siyosati davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi deb belgilangani mammalakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi muvafaqiyatlarining kafolati bo'lishi shubhasiz. O'tgan yillar mobaynida Namangan davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan yetakchi oliy ta'lif muassasalaridan biriga aylandi. Bunda yurtimizga har tomonlama yetuk, bilimli, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollangan, raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu sohaga aloqador videoelektor yig'ilishlarida, soha xodimlariga bayram tabrigi va Murojaatnomalarini eshitib har birimizda shunday histuyg'u vujudga keladiki, davlatimiz rahbari har bir chiqishlarida xoh u mamlakatimizda bo'lsin, xoh xalqaro miqyosdagi nufuzli anjumanlarda bo'lsin yangi g'oya va tashabbuslarini ilgari suradilar. Yaqinda O'zbekistonni xalqaro miqyosda obro'-e'tiborining oshishi bilan bog'liq voqeani guvohi bo'ldik. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar tashkilotining 75-yubiley sessiyasida tarixiy nutq so'zladi. Avvalo, nutq o'zbek tili ona tilida bayon qilingani bilan tarixiy ahamiyatga ega. Ikkinchidan, yer yuzi aholisining tashvishga solayotgan masalalar yechimi bilan bog'liq aniq takliflar ilgari surildi. Shu bois,

Prezidentimizning BMT sessiyasida so'zlagan nutqlari jahon hamjamiyati siyosatdonlari tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olindi, uni ular o'rghanmoqda, ma'qullamoqda. Bular tabiiyki, har bir O'zbekistonlik qatori biz ma'rifatchilarda ham g'urur va faxr uyg'otmoqda. Ushbu fikrni davom ettirib, yana bir jihatni ta'kidlamoqchimiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik bayrami munosabati bilan xalqimizga yo'llagan bayram tabriklarida O'zbekistonning kelgusi rivoji, yuksalishi bilan bog'liq bir muhim g'oyani ilgari surdilar, ya'ni "O'zbekistonda uchinchi Renessans davri uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda" – dedilar. Ushbu da'vatni joriy yildagi Murojaatnomalarida atroficha asoslab berdilar, aniqrog'i, xalqimiz o'zining qadimiyligi va boy tarixida birlinchi va ikkinchi uyg'onish davrini o'z boshidan kechirganini chuqur ilmiy tahlil qilib berdi. Ayni chog'da, "Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar misolida uchinchi uyg'onish davri uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda" – deganlarida chuqur ilmiy asos bor, va bu yangi g'oya "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy konsepsiya hamohang deb bilamiz. Shuning uchun ham, avvalroq aytganimizdek, mamlakatimizda yoshlарimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat egasi qilib tarbiyalashda ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga katta g'amxo'rlik qilinmoqda. O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bayram tabrigini har yili Prezidentimizning shaxsan o'zlari yo'llaganliklari, ushbu Murojaatnomada sohani yanada yangi bosqichga olib chiqish bilan bog'liq, o'qituvchining jamiyatda obro'- e'tiborini yanada oshirish bilan bog'liq aniq vazifalarni belgilab bergenlari, yuqorida fikrimizning isbotidir. Prezidentimiz o'z Murojaatnomalarida ta'lim tizimining barcha bo'g'ini: maktabgacha ta'lim, maktab ta'limiga doir barcha dolzarb vazifalarni belgilab berdilar, uyg'onish davri uchun aynan shu tizimni yanada rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslab berdi.

«Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir! Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak deb ta'kidlab o'tkanlari beziz emas bu bilan O'zbekistonning kelajagini ta'lim bilan qurishimizga yaqol misol bo'la oladi deb o'ylaymiz. Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'ligi joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz. Biz Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalarini yangicha tafakkurga ega, ijodiy fikrlovchi, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash o'quv muassasalarimiz oldida turgan eng dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Bunday muammolarni hal etish ko'p jihatdan ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan samarali usullar, vositalar va ularni shakllantirish yo'llariga ham bog'liq. Demak, ta'lim muassasalarida yoshlarni mustaqil ishslash faolligini boshqarishda professor-pedagog tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini uzluksiz ravishda

barcha bosqichlarda amalga oshirishlariga bog'liq, deyish mumkin. Buning uchun ta'lif dargohlarida mustaqil ishlashga o'rganish tarbiyasini shakllantirishni dolzarb vazifa qilib qo'yumoq lozim. Pedagogik ta'liftarbiya tizimida har bir fan talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ma'lum maqsadlar uchun o'z ta'sirini o'tkazadi. Talabalarni axloq qoidalari, fanlar bo'yicha bilimlarni baholash mezonlari, ichki tartib-qoidalari va nizomlari bilan belgilanadi.O'zbekistonda davlatning bu sohadagi siyosati va Ta'lifni isloh qilish Konsepsiysi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lif to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi. Ta'lifning muhim tarkibiy qismi bo'lgan ilmiy tadqiqot inson dunyoqarashini o'zgartirish, nazariy g'oyalarni amaliyat bilan uyg'unlashtirish, jamiyat taraqqiyotini ilgarilashiga ta'sir qiluvchi omildir. Talabalarning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini yuzaga chiqaruvchi ilmiy faoliyat jarayonini takomillashtirish ularni yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi. Bu esa ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil qilish usullarini tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Maktablarda tashkil etilayotgan dars jarayonlari, bevosita ushbu ta'lif muassasalarining o'zida yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirilayotganligi quvonarli albatta. Maktablarda o'qitilayotgan chet tillari o'quvchilarni jahon standartlariga mos ravishda tarbiyalanayotganliklarini ko'rsatib bermoqda. Ta'lif olish barchamizning ham huquqimiz va albatta shu bilan birgalikda burchimiz ham hisoblanadi. Bu kabi normalarning barchasi Yangi O'zbekiston konstitutsiyasida o'z aksini topdi.Yangi Konstitutsiyamizning 50-moddasida,, Har kim ta'lif olish huquqiga ega. Davlat uzliksiz ta'lif tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lif tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat bepul umumiyl o'rta ta'lif va boshlang'ich professional ta'lif olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lif majburiydir. Ta'lif tashkilotlarida alohida ta'lif etiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inkluziv ta'lif va tarbiya ta'minlanadi" shu kabi noramalar bilan mustahkamlandi.Shu bilan birgalikda maktablarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va murabbiylarning ham huquqlarini yangi konstitutsiyamiz orqali mustahkamlanganligi ko'rishimiz mimkin. Yangi konstitutsiyamizning 52- moddasiga muvofiq,, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadrqimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy faravonligini, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Darhaqiqat bugungi kunda maktab ta'limga bo'lan e'tiboer darajasi juda ham kuchaymoqda. O'quvchi yoshlarning malakali bilim olishi hamda shu bilan birgalikda ularni hayoti mobaynida yaxshi bir kasb-hunarni egallashlari uchun shart-sharoitlar bilan ta'minlanmoqda. Bu borada yoshlar o'zları qiziqqan kasb hunarni egallashlari uchun qizlarimizga tikuvchilik, qandolatchilik, gilamdo'zlik, ayollar sartaroshi kabi kasblar, yigitlarimizga esa erkaklar sartaroshligi, duradgorlik, ustachilik, yog'och o'ymakorligi va boshqa turdag'i hunarlar ushbu sohalarning yetuk mutaxassislari tomonidan

o'rgatilib kelinmoqda. Hozirgi kunga kelib ota onalarga qulaylik yaratish maqsadida maktablarda kundalik.com electron platformasi tashkil etilgan bo'lib, undan ota-onalar farzandlarini to'g'ridan-to'g'ri onlayn tarzda nazoratga olib turishlari mumkin bo'ladi. Bugungi kun maktablarining infratuzilmasi juda ham chiroy ochib bormoqda. Yangidan yangi maktablar qurilmoqda, eskilari esa rekanstruksiya qilinmoqda. Bu kabi ishlardan ko'zlangan maqsad yoshlarni ilmli, bilimli qilib tarbiyalash, ertangi kunga yetuk inson sifatida yetkazib berishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh M "Bilimli avlod – buyuk kelajakning , tadbirkor xalq – farovon hayotning, do,,stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O,,zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag,,ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi "Xalq so,,zi" gazetasi 2018 yil 8 dekabr
2. O,,zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagи "Oliy o,,quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to,,g,,risida" gi PF-4958 sonli Farmoni.
3. Yangi O,,zbekiston Demokratik o,,zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Sh.M.Mirziyoyev. Toshkent 2021.
4. R.J. Ishmuhamedov, M.Yuldashev, "Ta"lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar". Ta"lim tizimi xodimlari, metodistlar, o,,quvchilar tarbiyachi va murabbiylar uchun qo,,llanma. Toshkent - 2017. 3-nashr.
5. Vaxobov M.M. Umumiy o,,rta ta"lim tizimida o,,qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish // pedagogika fanlari doktori diss. –T., 2016. - 260 b